# TIBBIYOT
## TA'LIMI & INNOVATSIYALARI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
19 20
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

Google scholar

PubMed MEDLINE

NIH U.S. National Library of Medicine National Institutes of Health | Advancing Health Through Knowledge



- 14.00.00 - Tibbiyot fanlari;
- 14.00.01 - Akusherlik va ginekologiya;
- 14.00.02 - Morfologiya;
- 14.00.03 - Endokrinologiya;
- 14.00.04 - Otorinolaringologiya;
- 14.00.05 - Ichki kasalliklar;
- 14.00.06 - Kardiologiya;
- 14.00.07 - Gigiena;
- 14.00.08 - Oftal'mologiya;
- 14.00.09 - Pediatriya;
- 14.00.10 - Yuqumli kasalliklar;
- 14.00.11 - Dermatologiya va venerologiya;
- 14.00.12 - Tibbiy reabilitologiya;
- 14.00.13 - Nevrologiya;
- 14.00.14 - Onkologiya;
- 14.00.15 - Patologik anatomiya;
- 14.00.16 - Normal va patologik fiziologiya;
- 14.00.17 - Farmakologiya va klinik farmakologiya;
- 14.00.18 - Psixiatriya va narkologiya;
- 14.00.19 - Klinik radiologiya;
- 14.00.20 - Tibbiy genetika;
- 14.00.21 - Stomatologiya;
- 14.00.22 - Travmatologiya va ortopediya;
- 14.00.23 - Hamshiralik ishini tashkil etish;
- 14.00.24 - Sud tibbiyoti;
- 14.00.27 - Xirurgiya;
- 14.00.28 - Neyroxirurgiya;
- 14.00.41 - Xalq tabobati;
- 14.00.35 - Bolalar xirurgiyasi;
- 14.00.34 - Yurak-qon tomir xirurgiyasi

№8-SON


2026-yil, avgust

tibbiyot-talimi-va-innovatsiyalari.uz

https://t.me/tibbbiyot_2100


Litsenziya raqami: №745444













# Tahrir hay’ati a’zolari:



**BOSH MUHARRIR:**
**Shuhrat Baymuradov Abdujalilovich**
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



**BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:**
**Iminov Komiljon Odiljonovich**
tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori

“Tibbiyot ta'limi va innovasiyalari” ilmi elektron jurnali 29.04.2025-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669801 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Litsenziya raqami: №745444.

# Tahrir hay’ati a’zolari:



**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**
Texnika fanlari doktori (DSc), professor



**Ishanqulov Artiqboy Eshboyevich**
Biologiya fanlari doktori (DSc), professor



**Otamuradov Furqat Abdukarimovich**
tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent.



**Shuxrat Jumayevich Teshayev**
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



**Oral Aminovna Ataniyazova**
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



**Jalolova Feruza Maxamatjanovna**
Tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (DSc), dotsent



**Uraqov Shokir Ulashovich**
tibbiyot fanlari doktori doktori (DSc)

"TIBBIYOT TA’LIMI VA INNOVATSIYALARI"
ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2024-yil 9-oktabrdan boshlab c-5669651 raqami ostida rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Murojaat uchun telefon:
+998 97 748 70 03
Email: @munis_sm

# MUNDARIJA

ТОШКЕНТ ХАЛҚАРО МОЛИЯ МАРКАЗИ ВА СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ: ЯНГИ ҚОНУННИНГ АҲАМИЯТИ ..... 12
**Шуҳрат Боймуротов**

IMPROVEMENT OF THE SURGICAL APPROACH TO THE TREATMENT OF CRANIOVERTEBRAL JUNCTION ANOMALIES ASSOCIATED WITH SPINAL MALFORMATIONS (CLINICAL EXPERIENCE) ..... 17
**Arzikulov Sh.T., Ismailova R.O., Jabborov N.I.**

ARTERIAL GIPERTENZIYA VA 2 TIP QANDLI DIABET: PATOGENETIK BOG‘LIQLIKLAR VA GENETIK PREDISPOZITSIYA ..... 25
**Ellamonov Suxrobjon No‘mon o‘g‘li**

БОЛАЛАРДА ПСОРИАЗНИНГ КЛИНИК-БИОКИМЁВИЙ, ИММУНОПАТОГЕНЕТИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ ҲИСОБГА ОЛГАН ҲОЛДА КОМПЛЕКС ДИАГНОСТИКА ВА ТЕРАПИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ..... 32
**Хаитов Кахрамон Нажмитдинович, Абидов Хасанходжа Алишерович, Махкамова Мухлиса Фархадовна**

GLUTEN BILAN BOG‘LIQ SALOMATLIK XAVFLARI VA OZIQ-OVQAT NAZORATINING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI: TANQIDIY ADABIYOTLAR SHARHI ..... 48
**Abdullaeva Dilafruz G‘ayratovna, Razikov Farrux Ibragim o‘g‘li, Abdullaeva Dilafruz G‘ayratovna**

SLEEP AND CIRCADIAN RHYTHMS IN RELATION TO ANDROGEN STATUS IN MIDDLE-AGED MEN: CURRENT EVIDENCE AND CLINICAL IMPLICATIONS ..... 58
**Feruza Lyutpillayevna Azizova, Abdukhalim Kholiddin ugli Abdurakhimov**

BOLALARDAGI NEYROGEN DEFORMATSIYALARNING UMUMIY KLINIK TAVSIFI VA ULARNI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMILLAR TAHLILI ..... 66
**Xalimov Ravshan Jurabayevich**

KESARCHA KESISHDAN KEYINGI UZOQ MUDDATLI ASORATLAR VA REABILITATSIYA STRATEGIYALARI (ADABIYOTLAR SHARHI) ..... 70
**Atayeva Farzona Nuriddinovna**

KATTALARDA MODIFIKATSIYALANGAN INTRAMEDULLYAR VINTLAR YORDAMIDA KAFT SUYAKLARI SINIQLARINI KAM INVAZIV OSTEOSINTEZ QILISH ..... 75
**Xudoyorov Farhod Rustamovich**

УСОВЕРШЕНСТВОВАННАЯ МЕТОДИКА ДИНАМИЧЕСКОЙ АНГИОНЕФРОСЦИНТИГРАФИИ ДЛЯ РАСШИРЕННОЙ КОЛИЧЕСТВЕННОЙ ОЦЕНКИ ФУНКЦИИ ПОЧЕК ..... 85
**Хикматов Акром Азимджанович**



# TOSHKENT XALQARO MOLIYA MARKAZI VA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: YANGI QONUNNING AHAMIYATI

**Shuhrat Boymurotov**
Toshkent davlat tibbiyot universiteti rektori

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimini modernizasiya qilish, tibbiy infratuzilmani rivojlantirish, tibbiy ta'lim sifatini oshirish va mamlakatning Markaziy Osiyodagi mintaqaviy tibbiyot xabiga aylanish istiqbollari Toshkent xalqaro moliya markazi faoliyati bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. Tadqiqotda xalqaro moliyaviy markazning investisiyalarni jalb etish, loyihaviy moliyalashtirish, sug‘urta, investisiya jamg‘armalari va aktivlarni boshqarish kabi mexanizmlarining sog‘liqni saqlash infratuzilmasi va tibbiy texnologiyalarni rivojlantirish uchun qo‘shimcha moliyaviy manba sifatidagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, tibbiy turizmni rivojlantirish, yuqori texnologiyali tibbiy xizmatlar eksportini kengaytirish, xorijiy bemorlar oqimini oshirish, tibbiyot oliy ta'limini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish hamda malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish masalalariga e'tibor qaratilgan. Tahlil natijalari Toshkent xalqaro moliya markazi mexanizmlaridan samarali foydalanish sog‘liqni saqlash tizimining investision imkoniyatlarini kengaytirish, tibbiy xizmatlar eksportini rivojlantirish, inson kapitalini mustahkamlash va O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda raqobatbardosh tibbiyot markazi sifatidagi mavqeini kuchaytirishga xizmat qilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Toshkent xalqaro moliya markazi, sog‘liqni saqlash tizimi, tibbiy investisiyalar, sog‘liqni saqlashni moliyalashtirish, tibbiy turizm, tibbiy ta'lim, inson kapitali, tibbiy xizmatlar eksporti, tibbiy texnologiyalar, Markaziy Osiyo, sog‘liqni saqlash infratuzilmasi.

**Abstract:** This article examines the prospects for modernizing Uzbekistan’s healthcare system, developing medical infrastructure, improving the quality of medical education, and positioning Uzbekistan as a regional medical hub in Central Asia in the context of the Tashkent International Financial Centre. The study explores the potential of international financial centre mechanisms, including investment attraction, project financing, insurance, investment funds, and asset management, as additional sources of financing for healthcare infrastructure and the adoption of advanced medical technologies. Particular attention is paid to the development of medical tourism, the expansion of high-technology medical service exports, the growth of international patient flows, the improvement of medical education in accordance with international standards, and the attraction of qualified foreign specialists. The analysis indicates that the effective use of the mechanisms of the Tashkent International Financial Centre could expand investment opportunities in the healthcare sector, promote the export of medical services, strengthen human capital, and enhance Uzbekistan’s competitiveness as a regional medical hub in Central Asia.

**Key words:** Tashkent International Financial Centre, healthcare system, healthcare investment, health financing, medical tourism, medical education, human capital, medical service exports, medical technologies, Central Asia, healthcare infrastructure.

**Аннотация:** В статье анализируются перспективы модернизации системы здравоохранения Узбекистана, развития медицинской инфраструктуры, повышения качества медицинского образования и формирования Узбекистана как регионального медицинского хаба Центральной Азии в контексте деятельности Ташкентского международного финансового центра. Рассмотрены возможности использования механизмов международного финансового центра, включая привлечение инвестиций, проектное финансирование, страхование, инвестиционные фонды и управление активами, в качестве дополнительных источников финансирования развития инфраструктуры здравоохранения и внедрения современных медицинских технологий. Особое внимание уделено развитию медицинского туризма, расширению экспорта высокотехнологичных медицинских услуг, увеличению потока иностранных пациентов, совершенствованию медицинского образования на основе международных стандартов и привлечению квалифицированных зарубежных специалистов. Результаты анализа показывают, что эффективное использование механизмов Ташкентского международного финансового центра может способствовать расширению инвестиционных возможностей системы здравоохранения, развитию экспорта медицинских услуг, укреплению человеческого капитала и повышению конкурентоспособности Узбекистана как медицинского центра Центральной Азии.

**Ключевые слова:** Ташкентский международный финансовый центр, система здравоохранения, медицинские инвестиции, финансирование здравоохранения, медицинский туризм, медицинское образование, человеческий капитал, экспорт медицинских услуг, медицинские технологии, Центральная Азия, инфраструктура здравоохранения.

## KIRISH

Joriy yil O‘zbekiston Respublikasining «Toshkent xalqaro moliya markazi to‘g‘risida»gi Konstitusiyaviy Qonuni qabul qilindi. Hujjat Qonunchilik palatasi tomonidan 1-iyulda ma'qullanib, Senat tomonidan 9-iyulda tasdiqlandi va Davlat rahbari tomonidan imzolandi. Qonunning maqsadi — Toshkent shahrida alohida huquqiy rejim amal qiladigan xalqaro moliya markazini tashkil etish, uni jahon miqyosida e'tirof etilgan yetakchi moliyaviy yurisdiksiyaga aylantirish hamda shu orqali milliy iqtisodiyotning diversifikasiyalashuviga, barqaror o‘sishiga va raqobatbardoshligiga xizmat qilishdan iborat.

Moliya markazining faoliyat mexanizmlari — investisiyalarni jalb etish tizimi, hayotni va baxtsiz hodisalardan sug‘urta qilish, sog‘lomlashtirish xizmatlari, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik hamda fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risidagi qonunchilik, soliq imtiyozlari, kadrlar salohiyatini oshirish dasturlari va xorijiy mutaxassislarni jalb etish tartib-taomillari — mamlakat ijtimoiy sohasining, shu jumladan, sog‘liqni saqlashning resurs bazasini kengaytirishga bilvosita, ammo aniq mantiqiy yo‘nalishda xizmat qilishi mumkin.

Qonunning 7-moddasida sanab o‘tilgan moliyaviy xizmatlar ro‘yxati ichida sug‘urta faoliyati — jumladan, hayotni va baxtsiz hodisalardan sug‘urta qilish, shuningdek, sug‘urta vositachiligi va sug‘urta faoliyatini boshqarish xizmatlari — alohida o‘rin egallaydi. Xuddi shu moddada loyihaviy moliyalashtirish, kompaniyalar uchun kapital taqdim etish, investisiya jamg‘armalarini va aktivlarni boshqarish bo‘yicha xizmatlar ham nazarda tutilgan. Amaliyotda bunday moliyaviy vositalar tibbiyot muassasalari va tibbiy texnologiyalar loyihalarini moliyalashtirishning qo‘shimcha kanaliga aylanishi, shu orqali sog‘liqni saqlash infratuzilmasini modernizasiya qilish uchun zarur mablag‘larni jalb etishga ko‘maklashishi mumkin.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So‘nggi yillarda O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimini modernizasiya qilish, uni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va tibbiy xizmatlar sifatini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va Yevropa sog‘liqni saqlash tizimlari hamda siyosatlari observatoriyasining 2024 yilgi tahlilida O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida moliyalashtirish, birlamchi tibbiy yordam, raqamlashtirish va kadrlar salohiyatini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatilgan. Shuningdek, sog‘liqni saqlashga davlat xarajatlarining nisbatan pastligi va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan tibbiy xarajatlarining yuqoriligi tizim oldidagi muhim vazifalardan biri sifatida qayd etilgan. Jahon bankining O‘zbekiston uchun ishlab chiqilgan National Health Compact hujjatida esa sog‘liqni saqlash infratuzilmasini modernizasiya qilish, moliyaviy resurslarni markazlashtirish va tibbiy xizmatlarni xarid qilish samaradorligini oshirish, xususiy sektor imkoniyatlaridan foydalanish, raqamli tibbiy axborot tizimlarini joriy etish hamda tibbiy kadrlar salohiyatini mustahkamlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur yondashuvlar sog‘liqni saqlash tizimiga qo‘shimcha investisiyalarni jalb etish va inson kapitaliga sarmoya kiritishning muhimligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, maqolada ko‘rib chiqilgan Toshkent xalqaro moliya markazining investisiyalarni jalb qilish, loyihaviy moliyalashtirish, sug‘urta va investisiya fondlaridan foydalanish mexanizmlari sog‘liqni saqlash infratuzilmasini rivojlantirish uchun

qo‘shimcha moliyaviy imkoniyat sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolada ta'kidlanganidek, bunday mexanizmlar zamonaviy klinikalar, tibbiy texnologiyalar va farmasevtika sohasiga investisiyalarni yo‘naltirish, shuningdek, tibbiy turizm va yuqori texnologiyali tibbiy xizmatlar eksportini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda Toshkent xalqaro moliya markazi faoliyatining O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimini modernizasiya qilish, tibbiy infratuzilmani rivojlantirish, tibbiy ta'limni takomillashtirish va mamlakatning mintaqaviy tibbiyot xabiga aylanish istiqbollariga ta'sirini baholashga qaratilgan kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy va axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari, Prezident qarorlari, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkiloti materiallari, shuningdek, so‘nggi yillarda chop etilgan ilmiy maqolalar tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, mantiqiy umumlashtirish va ekspert-analitik baholash usullaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv asosida Toshkent xalqaro moliya markazining investisiyalarni jalb etish, loyihaviy moliyalashtirish, sug‘urta va boshqa moliyaviy mexanizmlari hamda ularning sog‘liqni saqlash tizimi bilan o‘zaro bog‘liqligi o‘rganildi. Qiyosiy tahlil orqali O‘zbekistondagi sog‘liqni saqlashni moliyalashtirish va tibbiy xizmatlarni rivojlantirish jarayonlari xalqaro va mintaqaviy tendensiyalar bilan solishtirildi. Kontent-tahlil usuli orqali sog‘liqni saqlashni moliyalashtirish, tibbiy investisiyalar, tibbiy turizm, tibbiy ta'lim, inson kapitali va zamonaviy tibbiy texnologiyalarga oid normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlarida keltirilgan ma'lumotlar o‘rganildi. Mantiqiy umumlashtirish asosida moliyaviy infratuzilmani rivojlantirishning sog‘liqni saqlash tizimi, tibbiy xizmatlar eksporti va mamlakatning mintaqaviy tibbiy markaz sifatidagi salohiyatiga ehtimoliy ta'sir yo‘nalishlari aniqlandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ibn Sino merosi: tarixiy obro‘dan mintaqaviy tibbiyot xabiga. O‘zbekiston — buyuk alloma Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) yurti bo‘lib, uning «Tib qonunlari» asari asrlar davomida Yevropa universitetlarida tibbiyot bo‘yicha asosiy darslik sifatida o‘qitilgan hamda inson anatomiyasi va klinik tibbiyot fanining ilmiy poydevorini yaratishga xizmat qilgan. Jahon tibbiyot sivilizasiyasining ildizlari aynan Markaziy Osiyoda, xususan, Buxoro vohasida shakllanganligi Toshkent xalqaro moliya markazidan yo‘naltiriladigan investisiyalarning sog‘liqni saqlash sohasiga qaratilishi uchun nafaqat iqtisodiy, balki madaniy-tarixiy asos ham yaratadi. Agar moliyaviy vositalar — sug‘urta, loyihaviy moliyalashtirish, investisiya jamg‘armalari orqali jalb etiladigan mablag‘lar — tizimli ravishda zamonaviy klinikalar, tibbiy texnologiyalar va farmasevtika ishlab chiqarishiga yo‘naltirilsa, O‘zbekiston 2030 yilga borib Markaziy Osiyoda tibbiy turizm, yuqori texnologiyali davolash xizmatlari va ilmiy-klinik tadqiqotlar markaziga — mintaqaviy «tibbiyot xabi»ga — aylanish salohiyatiga ega bo‘ladi. Bunda tarixiy obro‘ zamonaviy moliyaviy infratuzilma bilan uyg‘unlashsa, natija Markaziy Osiyo miqyosida raqobatbardosh bo‘lishi mumkin.

Yuqorida ko‘rsatilgan istiqbolning amaliy ifodasi sifatida, agar Moliya markazidan jalb etilgan investisiyalar hisobidan Markaziy Osiyo davlatlaridan keluvchi bemorlarga mo‘ljallangan, sun'iy intellekt texnologiyalari bilan jihozlangan yuqori texnologiyali muolaja va jarrohlik markazlari bunyod etilsa, bu nafaqat mamlakatimizga tashqaridan bevosita valyuta oqimini — davolash xarajatlari shaklida — olib keladi, balki tibbiy turizmning keng qamrovli iqtisodiy samarasini ham vujudga keltiradi. Iqtisodiy nazariyada bu hodisa «ko‘paytiruvchi (multiplikator) effekt» deb yuritiladi: bitta bemor ortidan uning bir yoki bir nechta yaqin qarindoshi ham mamlakatimizga tashrif buyuradi, ular davolash davomida faqat klinika hududida qolib ketmaydi, balki Jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan tarixiy shaharlarimiz — Samarqand, Buxoro, Xiva — bo‘ylab sayohat qilish imkoniyatidan foydalanadi. Natijada bemor va uning hamrohlari kamida bir necha kun mehmonxonalarda tunaydi, mahalliy umumiy ovqatlanish, ichki transport, gid xizmatlari va suvenir mahsulotlaridan foydalanadi — ya'ni tibbiy xizmat eksportining har bir dollari ortidan mehmonxona-turizm sektoriga yo‘naltirilgan qo‘shimcha xarajatlar oqimi hosil bo‘ladi. Davlatimiz bu yo‘nalishni allaqachon strategik ustuvor yo‘nalish sifatida belgilagan: jumladan, talabalar va olimlar qatori tibbiy hamda ziyorat turizmi uchun alohida viza toifalari joriy etilgan, shuningdek, 2024–2027 yillarga mo‘ljallangan tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirish dasturi doirasida maqsadli ko‘rsatkichlar tasdiqlangan. Demak, Moliya markazidan yo‘naltiriladigan investisiyalar nafaqat tibbiyot infratuzilmasini, balki unga ulangan mehmonxona-turizm ekotizimini ham jonlantirishi, shu orqali mamlakat xizmatlar eksportining tarkibiy diversifikasiyalashuviga xizmat qilishi mumkin.

Qonunning 27-moddasida Moliya markazi ma'muriyatining vazifalari orasida kadrlar salohiyatini rivojlantirish maqsadida xalqaro ilmiy va ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda akademiya yoki boshqa muassasani tashkil etish, rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash ko‘zda tutilgan. Mazkur norma o‘z mohiyatiga ko‘ra moliya sohasidagi kadrlarni tayyorlashga qaratilgan bo‘lsa-da, unda mujassamlangan institusional yondashuv — xorijiy ilmiy-ta'lim markazlari bilan uzoq muddatli sheriklik orqali malakali mutaxassislar tayyorlash modeli — mamlakatning

tibbiyot oliy ta'limi sohasidagi islohotlar mantig‘iga hamohang keladi va kelgusida shu turdagi hamkorlik mexanizmlarining tibbiyot ta'limi uchun ham qo‘llanilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti: inson kapitali va akademik almashinuv raqamlarda. Bu borada inson kapitali masalasi alohida ahamiyatga ega. Prezidentimizning 2025 yil 22 apreldagi PQ-149-son qaroriga asosan, Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti va Toshkent davlat stomatologiya instituti negizida Toshkent davlat tibbiyot universiteti tashkil etildi — bu tibbiy kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan yirik islohot hisoblanadi. Universitetning 27 ta ta'lim dasturi Butunjahon tibbiy ta'lim federasiyasi (WFME) va Yevrosiyo davlatlari tibbiyot muassasalarini akkreditasiya qilish markazi (ECAQA) talablari asosida xalqaro akkreditasiyadan o‘tkazilgan, shuningdek, so‘nggi yillarda 32 nafar xorijiy professor-o‘qituvchi o‘quv jarayoniga jalb etilgan. Universitet oldiga Times Higher Education xalqaro reytingining «Good health and well-being» yo‘nalishi bo‘yicha birinchi 200 talikka kirish vazifasi qo‘yilgan edi — joriy yilda yaqinda e'lon qilingan natijalarga ko‘ra, universitet 100 talikdan o‘rin oldi. Bu mamlakat tibbiy ta'lim salohiyatining xalqaro miqyosda e'tirof etilayotganini ko‘rsatuvchi aniq natijadir.

Xorijiy talabalar oqimi bo‘yicha raqamlar ham mamlakatimiz tibbiy ta'lim tizimiga bo‘lgan qiziqishning ortib borayotganini ko‘rsatadi. Xususan, Toshkent davlat tibbiyot universitetida 45 ta xorijiy mamlakatdan 3 mingdan ortiq talaba tahsil olmoqda. Umumrespublika miqyosida esa — barcha yo‘nalishlar bo‘yicha — Milliy statistika qo‘mitasi ma'lumotlariga ko‘ra, 2025 yilning yanvar–avgust oylarida 14 ming 216 nafar xorijiy fuqaro O‘zbekistonda ta'lim olishni boshlagan (o‘tgan yilga nisbatan 28,8 foiz yuqori), ularning asosiy qismi Turkmaniston (4603 nafar) va Hindistondan (3477 nafar) kelgan. Shu bilan bir vaqtda, 2026 yilning yanvar–aprel oylarida o‘qish maqsadida xorijga safar qilgan o‘zbekistonliklar soni 7 ming 355 nafarni tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 26,2 foizga kamaygan. Bunday tendensiya — xorijga ketayotganlar sonining qisqarishi va mamlakatimizga keluvchi xorijlik talabalar sonining ortishi — mahalliy oliy ta'lim, shu jumladan, tibbiy ta'lim sifatining oshib borayotganidan dalolat beradi hamda Toshkent davlat tibbiyot universiteti kabi muassasalar tayyorlayotgan malakali kadrlarning mamlakat inson kapitali sifatida samarali xizmat qilayotganini tasdiqlaydi.

Xorijiy malakali kadrlarni jalb etish borasida ham Qonunda muhim tartib-taomillar belgilangan. 20-modda Moliya markazi shaxslariga besh yilgacha muddatga kirish vizasi berish imkoniyatini nazarda tutsa, 21-modda Moliya markazi ishtirokchilari va organlariga malakali chet el fuqarolarini O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyati huquqiga doir tasdiqnoma olmasdan ishga jalb etish huquqini beradi. Bunday yengillashtirilgan tartiblar, agar kelgusida tegishli qarorlar bilan tibbiyot ta'limi va ilm-fan muassasalariga nisbatan ham tatbiq etilsa, xorijiy shifokor-professorlar, ilmiy tadqiqotchilar va tibbiyot sohasidagi ekspertlarni mamlakatimizga jalb etish hamda tajriba va bilim almashinuvini soddalashtirish imkonini berishi mumkin. Qonunning 3-moddasida belgilangan vazifalar qatorida milliy strategik loyihalarga, infratuzilmaga mahalliy va xorijiy investisiyalarni jalb qilish alohida ta'kidlangan. Keng ma'noda olinganda, mamlakat iqtisodiyotining investision jozibadorligi oshishi — sog‘liqni saqlash infratuzilmasini, tibbiy asbob-uskunalar ishlab chiqarishni va farmasevtika sanoatini rivojlantirish kabi strategik yo‘nalishlar uchun ham qo‘shimcha moliyaviy resurs manbaini yaratishi mumkin.

Diqqatga sazovor jihati shundaki, Qonunning 7-moddasi to‘rtinchi qismida Moliya markazi ma'muriyati lisenziyalashi yoki ro‘yxatdan o‘tkazishi mumkin bo‘lgan ruxsat etilgan boshqa faoliyat turlari orasida Moliya markazi ekotizimi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan sog‘lomlashtirish xizmatlari bevosita ko‘rsatilgan. Demak, Moliya markazi hududida sog‘liqni saqlash yo‘nalishida xizmat ko‘rsatuvchi muassasalarning, jumladan, sog‘lomlashtirish markazlarining faoliyat yuritishi qonuniy asosda to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilgan.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, «Toshkent xalqaro moliya markazi to‘g‘risida»gi Qonun o‘z mazmuniga ko‘ra moliyaviy-huquqiy hujjat bo‘lsa-da, uning ta'sir doirasi faqat bank-moliya sohasi bilan cheklanmaydi. Investisiyalarni jalb etish mexanizmlari, uzoq muddatli soliq imtiyozlari, kadrlar salohiyatini oshirish bo‘yicha institusional sheriklik va xorijiy mutaxassislarni jalb etishni soddalashtiruvchi tartib-taomillar — bularning barchasi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining umumiy kontekstida sog‘liqni saqlash tizimini modernizasiya qilish, tibbiy oliy ta'lim sifatini oshirish va malakali tibbiy kadrlar tayyorlash borasidagi milliy vazifalar bilan mantiqan uyg‘unlashadi. Tarixiy jihatdan jahon tibbiyoti ildizlari shakllangan mamlakatimizda Moliya markazining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, pirovard natijada, iqtisodiyotning resurs bazasini kengaytirish orqali sog‘liqni saqlash tizimining zamonaviylashishiga va O‘zbekistonning 2030-yilga borib mintaqaviy tibbiyot xabiga aylanish istiqbollariga ham bilvosita ijobiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ўзбекистон Республикаси. (2026, 13 июль). *Тошкент халқаро молия маркази тўғрисида*ги ЎРҚ-1158-сон Қонун. https://lex.uz/docs/8323797
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти. (2025, 22 апрель). *Тиббиёт соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида*ги қарор. https://www.lex.uz/acts/7491792
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти. (2024, 23 сентябрь). *Ўзбекистон Республикасида тиббий ва соғломлаштириш туризмини янада ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида*ги ПҚ-335-сон қарор. https://lex.uz/uz/docs/7111500
4. World Health Organization Regional Office for Europe. (2024). Health systems in action 2024: Uzbekistan.
5. World Health Organization Regional Office for Europe. (2024, July 10). Central Asia health investment plan agreed.
6. World Health Organization Regional Office for Europe. (2024). Roadmap for health and well-being in Central Asia (2022–2025): Progress and opportunities.
7. Lee, H., Khabibullaev, S., & Tuychiev, S. (2026). Current levels and needs of digital competence among medical teachers in Uzbekistan: A multi-institutional assessment and future directions. BMC Medical Education, 26, 922.
8. Bazarbaev, M. I., & Sayfullaeva, D. I. (2025). When algorithms meet anatomy: Uzbekistan's medical education in the age of technology. Central Asian Journal of Medicine, (4), 35–39.
9. United Nations in Uzbekistan. (2024). The multiplier effect of investing in health.

# TIBBIYOT
## TA'LIMI & INNOVATSIYALARI

**2026. № 8**

**Muharrir:** Sherzod Qurbonov

**Mas’ul kotib:** Surmaniso Mirzaliyeva

**Dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Tibbiyot ta'limi va innovasiyalari” ilmi elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @munis_sm
Tel.: 97 748 70 03





Google scholar

PubMed MEDLINE
NIH U.S. National Library of Medicine National Institutes of Health
Advancing Health Through Knowledge